


## NAMANGAN VILOYATIDA TURIZM VA DAM OLISH SOHASI RIVOJLANISHINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

Turizm deganda jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog'lomlashtirish, ma'rifiy, kasbiy-amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda uzog'i bilan bir yil muddatga jo'nab ketishi (sayohat qilishi) tushuniladi. Namangan viloyatida turistik faoliyatni amalga oshiruvchi firma va tashkilotlar soni 2 tani tashkil qilib, 2018 yilda ular tomonidan 909 nafar tashrif buyuruvchiga xizmat ko'rsatildi.

2018 yilda Namangan viloyatiga xizmat ko'rsatilgan tashrif buyuruvchilar soni 909 nafarni tashkil qilib, asosiy qismini Namangan viloyati fuqarolari – 909 nafar tashkil qildi. Bu esa o'z navbatida 100,0 foizni tashkil qildi.

### 2018 yilda Namangan viloyatida xizmat ko'rsatilgan tashrif buyuruvchilarning MDH, xorijiy va Namangan viloyati fuqarolari o'rtasidagi ulushi, foizda




2018 yilda Namangan viloyatida turistik faoliyatni amalga oshiruvchi firma va tashkilotlar tomonidan 13 ta sayyohlik yo'llanmalari sotilgan bo'lib, uning qiymati 288,8 mln. so'mni tashkil qildi.

### 2018 yilda sotilgan sayyohlik yo'llanmalarining soni va qiymati

	Soni, birlik	Qiymati, mln.so'm
<b>Sotilgan sayyohlik yo'llanmalari jami</b>	<b>13</b>	<b>288,8</b>
Ulardan bevosita aholiga	13	288,8
shu jumladan:		
O'zbekiston hududi bo'yicha O'zbekiston fuqarolariga	13	288,8
Chet el mamlakatlari bo'yicha O'zbekiston fuqarolariga	-	-
O'zbekiston xududi bo'yicha MDH fuqarolariga	-	-
O'zbekiston xududi bo'yicha boshqa chet el mamlakatlari fuqarolariga	-	-

2018 yilda sayyohlik yo'llanmalarining 100,0 foizi (13 dona) bevosita aholi tomonidan sotib olingan.

### 2018 yilda Namangan viloyatida jamoaviy joylashtirish vositalari



2018 yilda mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari soni 25 tani tashkil qildi. Ulardan, 100,0 foizi toifaga ega bo'lmagan mehmonxonalardir.

### 2018 yilda mehmonxonalarning toifasi (yulduzi) bo'yicha faoliyati

